

# **Course: History of the Eastern and Western philosophy**

**Lecture 2:** Development of Neoplatonistic ideas  
in Renaissance Italy

**Lecturer: Dr. Gulnoz Ruzmatova**

## ITALIYA UYG‘ONISH DAVRI FALSAFASIDA NEOPLATONISTIK G‘OYALARNING RIVOJI

Nikolay Kuzanskiyning neoplatonistik konsepsiyasi.

Georgiy Gemist Plifon g‘oyalari.

Marsilio Fichinoning ilmiy faoliyati.

Piko della Mirandolaning panteistik falsafasi.

Petro Pomponatsining inson haqidagi ta’limoti.

Erazm Rottyerdamskiyning “xristiancha gumanizm” falsafasi.

### **Tayanch so‘z va iboralar:**

Neoplatonizm, panteizm, xristiancha gumanizm, maksimum, minimum.

*Darsning maqsadi: Italiyada neoplatonizm falsafasi bo‘yicha atroflicha va chuqur bilimga ega bo‘lish; neoplatonizm falsafasi bilan boshqa ta’limotlarni qiyosiy tahlil qilish; ushbu falsafa bo‘yicha talabalarning bilimini kengaytirish; falsafiy manbani tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.*

**Nikolay Kuzanskiy** (1401-1464 yillar) Germaniyada Trir eparxiyasining Kuza deb nomlangan qishlog‘ida tug‘iladi. Uning otasi baliq savdosi bilan shug‘ullangan boy savdogar edi. O‘zining ilk ma’lumotini Deventer shahridagi “umumiy hayot birodarlari” maktabida oladi. Bu maktab diniy xarakterga ega bo‘lib, Iso payg‘ambarning hayotiga taqlid qilar edi. Birodarlarning mistik dunyoqarashi yosh Nikolay Kuzanskiy fikrlariga katta ta’sir ko‘rsatdi va uni sxolastik ratsional qarashlardan uzoqlashtirdi. Keyingi ma’lumotini u Geydelberg va Paduya universitetlarida davom ettiradi va bu yyerda kanonik ilmi doktori unvonini oladi. Keyin Kyoln universitetida o‘qiydi va bu yyerda buyuk Albert tarafdorlari bilan yaqin munosabatda bo‘ladi. Nihoyatda iqtidorli olim bo‘lganligi uchun u diniy muhitda katta obro‘ qozonadi va yosh bo‘lishiga qaramay kardinal unvoniga ega bo‘ladi.

Kuzanskiy diniy faoliyatda nihoyatda har taraflama bo'lgan. U katolik cherkovini kuchaytirishda ko'p xizmat qildi, gusidlar bilan muzokaralar olib bordi. Pravoslav cherkovini katolik cherkovi bilan yaqinlashtirishga harakat qildi. Papa Piy IIning bo'lgan do'stona munosabati Nikolay Kuzanskiy mansabda ko'tarilishiga yordam berdi. Nikolay Kuzanskiy o'zining faol diniy harakatlari bilan birga ilm sohasida ham shuhrat qozondi. Olimning dunyoqarishiga Dionisiy Areopagit, Mayster Ekxart, Shartr maktabimng platoniklari, Ioann Skott Eriugen kabi buyuk mistik mutafakkirlar kuchli ta'sir etdi. Buning natijasida Nikolay Kuzanskiy sxolastikaga xos bo'lgan ratsional falsafiy qarashlarga tanqidiy yondashib va o'zining original neplatonik falsafiy sistemasini yaratadi. Nikolay Kuzanskiy o'z davrining mashhur gumanistlari Eni Silviya Pikkolomini, Lorenzo Valla, Ambrodjo Traversari, Paolo Poskanellilar bilan do'stona munosabatda bo'lgan. Uning antik madaniyatga qiziqishi ham, aynan shu gumanistlarning ta'siri natijasida bo'ldi.

Kuzanskiy falsafasi markazini xudoning borliqdagi o'rni masalasi egallaydi. Bu masalani hal qilishda Kuzanskiy yechimi ilgarigi sxolastik qarashlardan tubdan farq qiladi. Kuzanskiy ta'limotida xudo cheksiz yaratuvchi kuchdir. U barcha olamlarni yaratadi va o'zi olamning ichida yashiringan, ya'ni olam va xudo yagona bir borliqdir. Lekin xudoning olamdagi borlig'i parda ortiga yashiringan. U hamma narsalarning mohiyatini tashkil etadi. U xristian diniga xos bo'lgan xudo uch qiyofada ko'rinishini tanqid qiladi. Xudoni ko'proq ruhiy qudrat, tabiatda yashiringan muqaddas ruh sifatida tushunadi. U xudoni cheksiz qudrat manbasi deb hisoblaydi va tabiatdagi barcha mavjudotlarda va tabiiy hodisalarda muqaddas ruhning tajallisini ko'radi. Bunday *panteistik* qarashlar Nikolay Kuzanskiyni Yangicha dialektik fikr yuritishga olib keldi. Olimning xudo haqidagi qarashlari dialektik fikrlar bilan sug'orilgan va ilmiy-bilimsizlik tushunchasida Kuzanskiy tomonidan aniq va ravshan ochiladi.

Xudo tabiatdagi oddiy ratsional fikr yuritish qolipiga sig'maydi. U mistik e'tiqod, Ollohga bo'lgan mistik ishonch orqali ochiladi. Bunday e'tiqod har

qanday mantiqiy fikr yuritishdan holdir va uni tushunish uchun biz Kuzanskiy ta'limotidagi dialektik tushunchalar mazmunini yoritishga o'tamiz.

Nikolay Kuzanskiy neoplatonizm falsafasida ishlatiladigan emanatsiya tushunchasi o'rniga ichki imkoniyatlar tushunchasini kiritadi. Bu tushuncha xudoni tabiatning ichida yashiringani ichki imkoniyat sifatida talqin qiladi. Bu imkoniyatlarning yuzaga chiqishi xudoning tabiatdagi tajallisidir. Imkoniyatlar qancha ko'p ochilsa, yashiringan borliq yuzaga shuncha ko'p ko'tariladi. Rivojlanishning o'zi Kuzanskiy fikricha, xudoning namoyon bo'lishi va tabiatdagi mavjudotlarning borlig'i orqali tajalli etishidir.

Olamning yaratilishi Kuzanskiyning fikricha, o'rgimchakning o'z ichidan to'r to'qishiga o'xshash jarayondir. Butun olam Ollohning ichida imkoniyat sifatida doimo mavjud bo'lgan. Keyinchalik esa bu yashiringan mavjudlik yaratish jarayonida yuzaga chiqadi. Ollohning mavjudligi yashirin imkoniyatlarning ochilishi jarayonida sodir bo'ladi. Bu imkoniyatlar esa cheksizdir. Shuning uchun olamning cheksizligi aslida Ollohning borlig'ida yashiringan imkoniyatlarning cheksizligidan kelib chiqadi. Bu imkoniyatlarning ochilishi yaratish jarayonini tashkil etadi. Natijada koinot doimiy cheksiz o'zgarish va rivojlanish jarayonidir. Demak, xudoning yashiringan qiyofasining ochilishi, olamning yaratilishi va tuzilishiga sababdir. Koinotdagi barcha hodisalar va narsalar mohiyatida xudoning qiyofalarini ko'rish mumkin. Bu qiyofalar o'zgaruvchan bir-biriga o'tib turadigan niqob ostidagi Ollohning jamolidir.

Inson tabiati Ollohning eng buyuk yaratgan borlig'idir. Inson tabiatida koinotdagi barcha unsurlar, jonzotlar birlashadi va yagona borliqni tashkil etadi. Shuning uchun inson tabiatida Ollohning yagona borlig'i mavjuddir. Lekin bu yagona borliq inson tabiatida yashiringan va ayrim insonlarda bu yagona borliqning faqat bir qismi ochiladi. Ollohning borligi va mavjudligi butun odamzotning borlig'ida mavjud. Butun odamzotning borlig'ini, ya'ni uning zotini o'z ichiga qamrab olgan shaxs ilohiy odamdir. Bu ilohiy odamni xristian dini tilida Nikolay Kuzanskiy "xudoning o'g'li", ya'ni mutlaq ruh yaratgan Iso Masih deb hisoblaydi. Iso Masih borlig'ida Ollohning nurli siyмосi

tajalli etadi va u butun olamni o'z ichiga jamlaydi. Iso Masih tabiati ilohiy tabiatdir va u butun borliq, koinot bilan qo'shilib ketadi. Borliqning har bir nuqtasida Iso Masih mavjuddir va Iso Masih ichida butun borliq mavjuddir. Ayrim odamlar tabiati esa bu yagona borliqning faqat bir qirrasini aks ettiradi. Lekin har bir insonda cheksiz rivojlanish imkoniyatlari mavjud.

Kuzanskiy fikricha, inson tafakkuri barcha bilimlarni o'ziga jo etgan va asta sekin ularni ochib boradi. Bilimning bunday yuzaga chiqishi asta-sekinlik bilan tajriba orqali amalga oshadi. Tafakkurning bir nechta bosqichlari bor. Tafakkur yoki aql hissiyot, tasavvur va mantiqiy fikr yuritishdan iboratdir. Bularning barchasi oliy darajadagi aql yoki ruhning xossalaridir. Hissiyotlar asosida va fikr yuritish yordamida aql narsalar haqida bilimga ega bo'ladi. Hissiyotlar inson aqliga nozik moddiy substansiya orqali ta'sir qiladi. Mantiqiy fikr yuritish hissiyotlardan olingan ma'lumotni tahlil qilib, bu tahlil asosida narsalar haqidagi bilimga ega bo'ladi. Lekin mantiqiy fikr yuritish orqali to'la bilimga ega bo'lish qiyin. Bunday to'la bilimni aqlidagi intuitiv qobiliyat beradi. Aql chegarasi yo'q bilimdir. Mantiqiy fikr yuritish esa chegaralangan. Kuzanskiy mantiqiy fikr yuritish bilan aql o'rtasida farq bor deb hisoblaydi: Aqlga mantiqiy fikr yuritishdan tashqari hissiyot, tasavvur, intuitsiya kiradi. Shuning uchun aql cheksiz narsalarni bilishga qodir.

Ishonch va bilim masalasida Nikolay Kuzanskiy fikrlari panteistik xarakterga ega. Ya'ni u xudo tabiatda tajalli etadi, tabiat esa xudoning ko'rinishi deb hisoblaydi. Lekin Kuzanskiyning bu fikrlari keng tarqalgan mistik bilimlardan farq qiladi [3, 35]. Bu masalada Kuzanskiy yondashuvi averroistlar fikridan farqlanadi. Bundan tashqari e'tiqodni bunday tushunish, Kuzanskiy ta'limotini oldingi faylasuflardan ustunligini ko'rsatadi.

Kuzanskiy intuitsiya va cheksizlik haqidagi qarashlari o'sha davr bilimlaridan tubdan farq qilar edi va Kuzanskiy intuitsiya orqali bir-biriga zid bo'lgan fikrlarni birlashtiradi va ularning bir-biriga o'tish jarayonini qayd qiladi. Intuitsiya ziddiyatlarni yengib bilimdagi barcha tafovutlarni yechadi. Intuitsiya

aqlning oliy turi bo‘lib, barcha narsalarning mohiyatini ochib beradi. Mantiqiy fikr yuritishda esa, narsalarning faqat yuzaki xossalari o‘rganiladi.

Intellektual intuitsiya N.Kuzanskiy ta’limotida “ilmiy-bilimsizlik” sifatida tan olinadi. Bilimsiz bilim deb atalgan intuitiv qobiliyat sxolastikadagi mantiqiy fikr yuritishga qarama-qarshi qo‘yiladi. “Bilimsiz bilim” orqali narsalarning mohiyati asta-sekin bosqichma-bosqich ochiladi. Kuzanskiy tomonidan intuitsiyaga qo‘yilgan bu nom olimlarni kamtarinlik yo‘liga chaqirar edi. Manmanlik Kuzanskiy fikricha, bilish jarayonidagi eng katta to‘siqlardan biridir. Bu to‘siqqa qarshi intuitsiya o‘zining kamtarinligini qo‘yadi. Kuzanskiy ta’limotida haqiqat mutlaq haqiqat emas, balki bosqichma-bosqich bilish jarayonidir.

Nikolay Kuzanskiy ta’limotida bilimning sub’ekti va ob’ekti bir-biriga o‘tadi va birlashadi. Bilish jarayoni cheksiz jarayon bo‘lib, bu jarayonda tafakkur haqiqatni to‘la bilishga intiladi. Lekin unga yetisha olmaydi. Kuzanskiy fikricha, tafakkurning haqiqatga intilishi ko‘p burchakli shaklning doiraga intilishiga o‘xshaydi, ko‘p burchakli shaklning burchaklari ko‘payib borgan taqdirda ham doira shakliga aylanmaydi. Xuddi shunday inson tafakkuri mutlaq haqiqatga erisha olmaydi. Ko‘pburchakli shaklning doiraga aylanishi sub’ektning ob’ektga aylanishiga o‘xshashdir. Sub’ekt-ob’ekt munosabatlarini bunday tushunish panteistik qarashlardagi xudo va inson o‘rtasidagi munosabatlarni Yangicha talqin qilishga ham ta’sir etdi. Kuzanskiy fikricha, inson butun borliqdagi xudoni bilishga intiladi buning natijasida insonning tabiati ilohiylashib boradi. Xudo esa insonning ichki olamida tajalli eta boshlaydi. Natijada inson ilohiy odamga aylanadi. Xudo tabiatda qanday o‘zini tajalli etsa, inson ham xudoni aynan shu shakllarda o‘rganadi. O‘sha davrning bilimlari ichida eng rivojlangani matematika bo‘lganligi uchun Kuzanskiy boshqa fanlarda ham matematika usullarini keng ishlatishni taklif qildi.

Sxolastik fanlarda matematika usullari keng ishlatilmas edi. Bu fanlar ko‘proq Aristotelning mantig‘iga asoslanar edi. Kuzanskiy tomonidan matematik usullarning keng ishlatilishi Uyg‘onish davridagi ilm-fanning

rivojlanishidan dalolat berar edi. Matematik usullarni qo'llanilishi Yangi davrda fanlarga oid tajribalarda ishlatila boshladi. Yangi davr tajribaga asoslangan bilimlar davri edi.

O'rta asrlarda Platonning ijodi nihoyatda kam ma'lum bo'lgan. Bular asosan "Timey", "Fedon" va "Menon" kabi dialoglar bo'lgan edi. Uyg'onish davrida antik madaniy meros qaytadan kashf etildi va ma'lum bo'lmagan ko'pgina asarlar tarjima qilina boshladi. Endi bu asarlarning estetik, siyosiy va badiiy tomonlariga ham katta e'tibor berildi. Florensiyalik mashhur mutafakkir Marsilio Fichino butun e'tiborini Platon ijodiga qaratdi va o'z atrofidagi shogirdlari bilan birgalikda yirik akademiya asos soldi.

Italiyada Uyg'onish davri gumanizmi ko'p jihatdan Platon ta'limotiga murojaat qilgan [1, 175]. Antik davrning haqiqiy asarlarini bilish imkoniyati kengaygandan keyin, sxolastik aristotelizmga qarshi kurashi, xususan, Aristotelning akvinskiycha talqiniga qarshi kurashi bilan izohlanardi. Platon ta'limoti Uyg'onish davrining antisxolastik falsafasida taraqqiyot ramzi sifatida tanilgan. Uning falsafasi ham o'tmish falsafasining hamda ilohiyotining sintezi hisoblangan. Uyg'onish davri platonizmi Platon ta'limotini Avgustin va Anuley qarashlari ruhida xristianlashtirilgan mazmuniga ega edi. Florensiyadagi Platon akademiyasida Platon "faylasuflarning xudosi" hisoblangan. Uning g'oyalari xristianlik uchun katta ahamiyatga ega ekanligi alohida ta'kidlangan. Jumladan, inson mohiyatining ikki tomonlama xarakteri haqidagi aqida uchun falsafa dinning munosabati masalasida Florensiya platonizmi falsafa inson haqida ishonchli bilimdir, degan g'oyani ilgari surgan. Bu g'oyalar Platon va uning izdoshlari ijodida to'liq ifodalangan. Hamma platonchilar dinni falsafiy-ilohiy doktrina (nuqtai nazar) deb hisoblaganlar.

Platon ta'limotining bu davrda singib ketishiga Platon ruhidagi neoplatonizm an'analari muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, platonchilar va aristotelchilar o'zaro ziddiyatla bo'lishlariga qaramasdan, platonchilarning ayrim vakillari Platon va Aristotel ta'limotlarini murosaga keltirishga harakat qilgan. Vizantiyaga xos bo'lgan bu harakat G'arbga ham

ko'chirilgan. Aslida XV asrda Uyg'onish davri platonchilari va aristotelchilari o'rtasidagi bahs aniq va izchil bo'lmagan, ko'pincha kelishuvchanlik xarakterida bo'lgan.

Italiyada platonchilikning rivojiga hissa qo'shganlardan biri vizantiyalik so'nggi neoplatonchi **Gyergiy Gemist Plifon** (taxminan 1355-1452 yillar) edi. U Platonga hurmat yuzasidan o'z nomini Pleton deb o'zgartirgan. U konstantinopollik bo'lib, Florensiyaga ko'chib kelgan. U Aristotel ta'limotini keskin rad qilgan holda Platon ta'limotidan dars bergan. Uning dunyoqarashi ellinistik xaraktyerda bo'lgan. U antik davr ko'pxudolik dini yordamida an'anaviy ortodoks xristianlikni inkor qilishga uringan. O'rta asr neoplatonizmi bilan qiziqish uni sharq mistitsizmi va zardo'shtiylikka murojaat qilishga olib keladi.

Plifon ta'kidlaydiki, dunyo xudoga bog'liq, lekin u xudo tomonidan ma'lum vaqtda yaratilmagan, chunki dunyo abadiydir. Xristian dinining xudo dunyoni hech narsadan yaratgan, xudoning "erkin irodasi" kabi aqidalari har qanday ma'nosini yo'qotadi. Ilohiy tamoyildan dunyoga o'tish jarayoni sababiy sanalgan. Faqat koinot emas, balki xudoning o'zi ham zaruriyatga bo'ysunadi. Bu masalada Plifon neoplatonizmning emanatsion ta'limotiga suyanmaydi. Ilohiylikdan dunyoviylikka o'tishning zaruriyligini tushuntirishda u yunon mushriklik dinining xudolariga murojaat qiladi. Uningcha, bu xudolarning boshlig'i Zevsga mutlaq bog'liqdir, lekin dunyo bevosita emas, balki alohida tabiat substansiyasi vositasida vujudga keladi. Bu substansiya ilohiy xarakterga ega. Bunday xudo va tabiatning cheksizligini ta'kidlashda *panteizm* g'oyalari kurtak shaklida mavjuddir. Uningcha, dunyo o'zining bu mutanosib birligida go'zaldir. Uning ilohiyligi shundadir. Insonni tan olish bu mutanosiblikni birlashtiruvchi "o'rta bo'g'in", deb bilishdir. Agar inson o'ziga, tabiatga va dunyoga bo'lgan munosabatda bu mutanosiblikni, go'zallikni namoyon qilsa, u ilohiydir. Bu — uning axloqiy kamolotga erishuv yo'lidir.

Plifon falsafasi Italiyada xayrixohlik bilan qabul qilindi. U birinchi marta neoplatonizmni o'rta asr ruhida, yoki qadimgi dunyo falsafasi ruhida emas, butunlay Yangicha falsafiy shaklda talqin qiladi. Albatta, bu Yangicha talqinni

qadimgi mushriklar dini ruhida amalga oshirish mumkin emasdi, xristian dinining 500 yillik rivojlanish an'analarini hisobga olish kerak edi.

Italyan platonizmining eng ravnaq topgan davri yuqorida eslatilgan Florensiyada Platon akademiyasi 1459 yilda Kazimo Medichi tomonidan tashkil qilingan vaqtga to'g'ri keladi. Bu akademiya Italiyaning boshqa shaharlaridagi madaniy jamiyatlar o'zida faylasuflarni, shoirlarni, rassomlarni, diplomatlarni va o'sha davrning siyosatchilarini jipslashtirgan edi. Bu uyushmalarning xarakteri rasmiy falsafiy markazlar, universitetlar va monastrlar, maktablarning xarakteridan butunlay farq qilardi. Unda ma'ruzalar o'qilmasdi, faqat suhbatlar uyushtirilardi. Platon akademiyasi Karidjiy shahrida Kozimo tomonidan taqdim qilingan binoda o'sha davrdagi faqat Italiyada emas, balki butun Yevropa madaniyat markaziga aylanadi. Ayniqsa, akademiya o'zining eng yuksak ravnaqiga Marsilio Fichino va Piko della Mirandola davrida erishadi.

**Marsilio Fichino** (1433-1499 yillar) Toskanyada tug'iladi. Boshlang'ich ta'limni Florensiya va Piza shahrida olgan. Fichino yoshligidanoq antik merosga bo'lgan zo'r qiziqishi bilan barcha odamlarni hayratga soldi. Florensiyaning mashhur hokimi Kozimo Medichi Fichinoga katta e'tibor berdi va o'ziga yaqinlashtirdi. Fichino bilan hamsuhbat bo'lish uchun villalaridan birini sovg'a qildi va "Yunon kodeksi" deb nomlangan Platon ijodiga mansub barcha kitoblarni sovg'a qildi. Fichinoning mehnatkashligi va serg'ayratligi tufayli Florensiyaning yaqinidagi Koredjo shahrida joylashgan villasi nafaqat Italiya balki Yevropaning ham yirik antik merosni o'rganuvchi markazlaridan biriga aylanadi.

Fichino atrofida yig'ilgan hamfikrlar, shogirdlar, do'stlar va homiylar o'sha davrda Platon akademiyasi nomi bilan mashhur bo'ldi. Bu akademiya erkin jamoa bo'lib, hech qanday universitet yoki cherkov qoshida bo'lmagan. U erkin fikr yurituvchilarning hamjihatligi bo'lib, ular xuddi Platon davridagi akademiyaga o'xshar edi. Bu yerda yig'ilgan erkin fikr yurituvchi olimlar, tarjimonlar va hokazolar bog'ni aylanib suhbat qurishar, bir-biri bilan fikr almashar va Platon

ruhiyatiga yaqin bo'lgan bahslarga kirishar edi. 1468 yil 7 noyabrda bu akademiya dargohida Platon tavalludiga bag'ishlangan katta yig'in o'tkazildi.

Ko'p yillar davomida Fichino Platon asarlari va neoplatonizmga tegishli bo'lgan kitoblarni tarjima qilib bordi. U ayniqsa "Germetik traktat" deb atalgan Pifagor va Platon maktablariga mansub bo'lgan faylasuflarning kitoblarini ham tarjima qildi va chuqur o'rgandi. Germes Trismegist nomi bilan mashhur bo'lgan qadimgi yunon traktati eramizning II va III asrlarida neoplatonizm oqimiga asos soldi va Platon ruhiyatidagi xristian diniy oqimlarini ham yuzaga keltirdi.

1460 yillarda Fichino Platonning barcha ma'lum bo'lgan asarlarini tarjima qilib bo'ldi. Bundan tashqari u Prokl, Yamvlix, Porfiriylar, Plotin ijodiga mansub bo'lgan ko'pgina traktatlarni ham tarjima qildi. XII asrda Yevropada mashhur bo'lgan vizantiyalik neoplatonik faylasuf Mixail Panni ham aynan Fichino tarjima qilgan edi. Fichinoning qalamiga mansub bo'lgan ko'pgina asarlar ham o'sha davrda chiqib boshladi. Bular: Platonning "Bazm" asariga tahlil (1469), "Jonning abadiyligiga bag'ishlangan Platonning diniy qarashlari" (1469-1474 yillar), "Xristian dini haqida" (1474) "Xabarlar" deb nom olgan kichik asarlar to'plami (1495).

Marsilio Fichino katolitsizm diniga mansub bo'lgan chin dildan xristian diniga ishonuvchi faylasuf bo'lgan. Shunga qaramay, u sxolastik diniy qarashlar o'rniga Platon va neoplatonizm davriga mansub bo'lgan falsafiy g'oyalarni qo'yadi. Bu g'oyalar asosan xudo va tabiat, xudo va inson, jonning abadiyligi, ruhiy muhabbat mavzulari edi. Sxolastik diniy dunyoqarashga xudoni dunyodan, tabiatdan va insondan o'tib bo'lmas to'siq bilan ajratish xos bo'lgan. Bu qarashlarga binoan xudo dunyoni yaratadi. Lekin keyinchalik unga aralashmaydi, chetdan kuzatadi. Fichino aynan shu qarashlarga qarshi chiqadi. Uyg'onish davri falsafasi va ayniqsa Fichinoning qarashlarida xudo bilan olamning aloqasi birlikdan ko'plikka o'tishi va undagi aloqalarga o'xshaydi. Xudo va dunyo masalasida Marsilio Fichino xuddi Nikolay Kuzanskiy va Piko della

Mirondolaga o'xshab koinotda xudo va uning yaratgan olami yagona birlikni tashkil etadi deb hisoblaydi.

Fichino qarashlariga binoan butun olam pog'onama-pog'ona tashkil topgan va bu pog'onalaridagi quyidagi bosqichlar yuqoriga intiladi, bu pog'onalarning barchasi ilohiy, ruhiy qudrat tomonidan boshqariladi. Eng yuqori pog'onadagi ruhiy kuch asta-sekin pastga tarqaladi. Olam Fichino fikriga ko'ra, besh pog'onadan iborat. Eng yuqori pog'ona bu xudodir. Keyingi pog'onalar "farishtalar", "jon", "sifat" va nihoyat "materiya" yoki vaznga ega bo'lgan "modda".

Fichinoning "Platon diniy qarashlari" deb nomlangan asarida xudo va dunyo bir-biridan ajralmas birlik va ko'plik aloqalari bilan bog'liqligi ko'rsatiladi. Eng oliy pog'onadan Ollohning nuri butun dunyoga tarqaladi va dunyodagi barcha jonzoatlarda Ollohning nuri mavjuddir. Bu nur orqali Olloh yerda ham mavjuddir.

Fichino qarashlariga mistik ruhiyatdagi panteizm xos bo'lgan. Xudo dunyoda tajalli etmaydi, dunyo xudoda tajalli etadi, ya'ni xudo faqatgina moddiy borliq bilan chegaralanib qolmaydi. Moddiy borliq ruhiyat olamining bir qismidir. Materiya va ruh aloqalarida ruh birlamchi o'rinni egallaydi. Eng oliy bosqichdagi xudo yaratgan dunyosi bilan farishtalar orqali aloqada bo'ladi. Farishtalarni Fichino sof aql deb ataydi. Bu sof aqlda yoki farishtalar aqlida barcha narsalarning shakli ham mavjuddir.

Sof aqldagi shakllardan osmon jismlari paydo bo'ladi. Ulardan keyin esa o'simliklar hayvonot olami, to'rtta unsur (er, suv, havo, o't) va tosh ma'danlar paydo bo'ladi. Sof aqlda barcha narsalarning shakli mavjud. Sof aqldagi mavjudlik harakatsiz sukunat holatidagi mavjudlikdir. Bu harakatsiz pog'onadan xilma-xil shakllarning harakatli shakliga o'tish sodir bo'ladi. Marsilio Fichinoning emanatsiyasida uchinchi bosqich yoki pog'ona eng muhim ahamiyatga egadir. Bu bosqichda jon joylashgandir. Bu jonni Fichino olamiy jon yoki tabiat deb ham ataydi.

Jon Marsilio Fichino falsafiy qarashlarining markaziy tushunchasidir. Fichinoning emanatsiya ta'limotida uchinchi o'rtadagi bosqichni jon egallaydi.

U yuqoridagi va pastdagi bosqichlar bilan bevosita bog'liqdir. Ularning barchasini o'zining tarovat nurlari bilan harakatga keltiradi. Sof aqldagi shakllarni aynan jon harakatga keltiradi. Sof aql harakatsiz holatda bo'lgani uchun barcha shakllarga harakatni jon bag'ishlaydi.

Jonda barcha ziddiyatlar birlashadi va barcha shakllar harakatga keladi. Jon koinotning qalbidir. Oллоh yaratgan eng buyuk mo'jizadir deb hayratlanib, yozadi Fichino [3, 10]. Jon - hayot ma'nosidir. Hayotning o'zi - jondir. Hayotdagi barcha narsalarning paydo bo'lishi, harakatlanishi jon tufayli bo'ladi. Harakatning sababi masalasida Marsilio Fichino o'rta asrda hukmron bo'lgan birlamchi turki haqidagi qarashlarga qarshi chiqadi. Aristotel sxolastikasiga ko'ra, tabiatni bevosita harakatga keltirgan birlamchi sabab xudodir. Fichino fikricha esa, xudo olamni jon orqali harakatga keltiradi. (U) xudo jonga butun muhabbatini beradi va bu ilohiy muhabbat kuchi orqali jon butun olamni harakatga keltiradi. Shunday qilib, ruhiy muhabbat olamdagi barcha narsalarni bog'lovchi va harakatga keltiruvchi kuchdir. Bu kuch eng yuqori bosqichdan boshlanib, eng pastdagi bosqichlargacha yetib boradi va ularni yana yuqori bosqich bilan bog'laydi. Koinotni harakatga keltiruvchi barcha narsalardagi go'zallikni uyg'unlik holatining sababi ham ruhiy muhabbatdir. Barcha narsalardagi go'zallik Oллоhning go'zalligidan kelib chiqadi. Fichino uchun bu o'tkinchi olam dard va azob chekish olami emas. Uning uchun bu dunyo xudo tomonidan yaratilgan go'zallik va muhabbat dunyosidir. Oллоh butun dunyoga shu qadar buyuk muhabbat va go'zallikni ato etdi-ki, undagi barcha jonzotlar bu kuchdan lazzatlanadi va zavqalanadi. Agar inson ham o'z qolbida ruhiy muhabbatni his qila olsa u bundan zavqalanadi va lazzatlanadi. Shunday qilib, Marsilio Lukretsiy Kar ta'limotidagi lazzatlanish va zavqlanish tushunchalarini neoplatoncha ruhiyatda talqin qildi. Fichino ta'limotida koinot - go'zallik, muhabbat va zavqlanish olamidir. Olamdagi Oллоhning tajallisi nur orqali sodir bo'ladi. Bu nur emanatsiyaning barcha bosqichlarida mavjuddir. Haqiqatning o'zi ham aslida Oллоhning nuridir. Xudo nur orqali barcha narsalarda mavjud va bu mavjudlik orqali narsalar chegarasini biladi va ularga usturlub orqali qaraydi [3, 11].

Narsalar xudo uchun bir ko'zgudir. Bu ko'zguda u o'z aksini ko'radi. Dunyoviy go'zallik ham Marsilio Fichining fikricha, narsalarda yashiringan Oloh timsoli aksidir. Shunday qilib dunyoviy go'zallik ham ruhiy xarakterga ega.

Insonga madhiya aytar ekan, Fichino uni ilohiylashtiradi. Fichino fikricha, xudo yaratuvchilik kuchini borliqdagi hech bir jonzotga bermadi, uni faqat insonga beradi va aynan shu ijodkorlik kuchi orqali insonni o'ziga yaqinlashtirdi. O'z ijodkorligi orqali inson xudoning yerdagi halifasidir. Insonning yerdagi halifaligi barcha narsalarni ruhiy iroda kuchi orqali boshqarishdan kelib chiqadi.

U nafaqat tabiatni, balki o'zini ham boshqara oladi. Insonning ruhi ozod va erkin yaratilganligi uchun u doimo erkinlikka intiladi, u boshqa barcha jonzotlardan erkinlikka intilishi bilan farq qiladi. Insonning daholigi unda buyuk bilimlar yashiringanligidan dalolat beradi. Barcha jonzotlar ichida insonning o'rni beqiyosdir. U o'zining ezgu xislatlari orqali Olohga eng yaqin turadigan mavjudotdir. Fichino tomonidan insonga aytilgan madhiya orqali O'rta asr sxolastik diniy dunyoqarashdan tubdan farq qiladi.

O'zining "Xristian dini haqida" asarida Fichino yer yuzidagi xilma-xil dinlarning mavjudligi haqida fikr yuritadi. Uning fikricha, oldingi ko'p xudolik dinlarida inson o'zining erkin ruhi orqali xudoni bilishga intilgan, lekin u xudoni birligi orqali emas, balki ko'plik shaklda anglagan. U tabiatning barcha kuchlarida yagona xudoni xilma-xil shakllarini ko'rgan va bu shakllarni xudo sifatida qabul qilgan. Ko'p xudolilik dinlarida ham Fichino fikricha, xudo mavjudligi uning yagonaligidan darak beradi. Ko'p xudolik dinlari insondagi hissiy tasavvurning rivojlangan paytida mavjud bo'lgan va inson bu hissiy tasavvur orqali xudoni barcha shakllarda his qilgan. O'sha davrda inson tabiatga yaqinroq bo'lgan va u xudoni borligini aqli orqali emas, balki his-tuyg'ulari va tasavvuri orqali sezgan. Shuning uchun ham yagona xudoga bo'lgan e'tiqodida Fichining hurfikrligi va diniy bag'rikengligi namoyon bo'ladi.

**Piko della Mirandola** (1463-1494 yillar). Neoplatonizm qarashlarining keyingi rivojini mashhur italiyan faylasufi Piko della Mirandola ijodida ko'rish mumkin. Piko della Mirandola zodagonlar oilasidan tug'ilgan. U graf Mirandola

va Konkordi senori hisoblanar edi. Piko yosh paytidan o'zining beqiyos bilimlari va xotirasi bilan zamondoshlarini hayratda qoldiradi.

Piko della Mirandola 1463 yil knyazlar oilasida tug'ildi. Uning onasi o'sha davrda mashhur bo'lgan shoir Boyardoning singlisi edi. O'n to'rt yoshida Bolonya shahrida kanonik huquq bo'yicha ma'ruzalar eshitadi. 1479 yil u Florensiya shahriga borib, Marsilio Fichino davrasiga mansub bo'lgan bir qator olim va shoirlar bilan uchrashadi. Lekin uning ilk ijodi neoplatonik ta'limoti ta'sirida bo'lmagan. U ikki yil davomida Paduya universitetida o'rta asr sxolastik falsafasini tinglagan va uni chuqur egallagan. Paduya universitetida Piko averroizm falsafasini ham o'rganadi. Undan tashqari u yunon va lotin tillarini mukammal bilgan, antik davr faylasuflari ijodini birlamchi manbalar asosida o'rgangan. U Parijga 1485 yilda boradi va eng oxirgi nominalistik talimotlarni o'rganadi. Shu bilan birga u Sharq falsafasini ham chuqur o'rganadi. Undagi mistik qarashlarni va induizm dinidagi kabbala ta'limotini ham o'zlashtiradi. 1486 yilda Rimda o'tkaziladigan Yevropa davlatlarining mashhur faylasuflari o'rtasida o'tkaziladigan munozaraga Jovanni Piko 900 ta tezisni yozib tayyorlaydi. Bu tezislarda xilma-xil falsafiy oqimlarga mansub bo'lgan qarashlardan iborat edi. Qolgan sakkiz yillik umrini Piko tezislarda bayon etilgan fikrlarni rivojlantirishga bag'ishladi. Bu munozara Papaning hukmiga binoan man etiladi va Piko Parijga qochadi.

Fransiyada Jovanni inkvizitsiya tomonidan qo'lga olinadi va Vinsent qal'asiga qamaladi. Pikoni bu qal'adan faqat italiyan hukmdori Lorensoning aralashishi ozod qiladi. 1486 yilda Jovanni Piko Florensiya shahrida Fichino davrasiga qo'shiladi. Uning qarashlari Marsilio Fichinoning qarashlariga nihoyatda yaqinlashib boradi. Hatto bir xil masalalar bo'yicha Pikoning qarashlari nihoyatda erkin va xristian diniga nisbatan tanqidiy tus oladi. Umrining oxirgi yillarida Mirandola "Geptapl" (olamning etti kunda yaratilishi haqida), "Birlamchi sabab va mohiyat haqida" (Platon va Aristotel qarashlarini kelishtirishga qaratilgan asar) va "Astrologiyaga qarshi mulohazalar" asarlarini yozadi.

Jovanni ijodida panteistik qarashlar Marsilio Fichinoning neoplatonik qarashlariga nisbatan kuchliroq ifoda etilgan. “Sevgi haqidagi konsona” yozilgan “Tahlilnoma”da u butun dunyoni doimiy yaratilishi haqida yozadi (*She Dio produsse ab aeterno*). Bu yaratilish jarayoni cheksiz va tinimsizdir. Uning qarashlariga binoan, dunyoning yaratilishi uch bosqichda sodir bo‘ladi. Bular: farishtalar, samoviy va elementar bosqichlardir. Piko fikricha, go‘zallik tushunchasi xudoga tegishli emas. Negaki Xudo mukammal, go‘zallik esa qandaydir nuqson bilan bog‘liq. Har bir narsani Pikoning fikricha, ikki tomoni bor. Bu tomonlar bir-biriga zid, bu ziddiyat birligi narsaning borligini belgilaydi. Go‘zallik ham o‘ziga zid bo‘lgan tomonsiz mavjud bo‘la olmaydi. Koinotdagi ierarxiya bu dunyoning o‘zaro munosabatlarini belgilaydi. Tabiatdagi barcha kuchlar o‘zining mohiyatini anglab etmaydilar. Lekin ular koinotni bilishga intiladilar.

Piko fikricha, xudo bu ierarxiyadan tashqarida, lekin u tabiatdagi barcha jismlarni yaratadi va bir-biriga bog‘laydi. Ollohning tabiatda mavjudligi moddiy va ruhiy narsalarning aloqasidan kelib chiqmaydi. Xudo tabiatning barcha zarrasida mavjud, u tabiatning birligi va mohiyatini tashkil etadi. Xudo barcha narsalarning mohiyatida yashiringan. Narsalarning go‘zalligi va latofati ham xudoning bu narsalarda mavjudligidan kelib chiqadi.

Piko della Mirandola narsalarning yashiringan mohiyatini astrologiya faniga mansub bo‘lgan olimlar tomonidan talqin qilinishiga qarshi chiqadi. Mirandola astrologiyadagi qonun-qoidalarni tanqid qilib, osmon jismlarining tabiiy xususiyatlarini o‘rganishiga da’vat etadi. Astrologiyadagi inson kelajagini yulduzlarga qarab bilishni tanqid qiladi. U jismlar harakatini o‘rganish uchun matematik usullardan foydalanishni maslahat beradi.

Pikoning fikricha, insonning o‘zi ham butun borliqni qamrab oluvchi mikrokosmosdir. Piko insonni ierarxiyaning barcha bosqichlaridan holi deb hisoblaydi. Koinot zinopoyasida insonning aniq egallagan o‘rni yo‘q. Inson bu o‘rinni o‘zining, hohishi va irodasiga binoan tanlaydi. Xudo insonga tanlash huquqini bergan va inson o‘z baxtining egasidir. Inson koinotning markazida

joylashgan va u o'zidagi barcha ijodkorlik kuchlarini o'zi voyaga etkazishi kerak. Insonning ierarxiyadagi o'rni, uning ruhiy erkinligi bilan ham bog'liq. Insonga xudo tomonidan komillikka erishish qobiliyati berilgan. Bu qobiliyatni inson o'zining har kungi hayotida ham, faoliyatida ham rivojlantirib borishi kerak. Agar inson bu qobiliyatlarni o'zida o'stirmasa, u tubanlik botqog'iga botadi. Demak, inson doimo rivojlanish va komillikka intilishi lozim. Xudo tomonidan insonga kuch-quvvat berilgan. Inson bu kuch-quvvat orqali oldiga qo'ygan barcha maqsadlariga erishishi mumkin. Piko o'z ijodining markaziga insonning erkin tanlash huquqini qo'yadi. Bu borada Mirandolaning fikrlari, inson tabiati va fe'lini o'z-o'zini tashkil etuvchi va rivojlantiruvchi tuzilma sifatida ko'radi. U inson erkin ijodiy faoliyatining mahsulidir. Inson qotib qolgan tosh emaski, u o'zgarmasa. Insonning asosiy qudrati uning harakatchanligida. Ollloh insonni o'ziga o'xshatib yaratgan. Demak, insonning ichki tabiatida komillikka erishishi uchun barcha kuchlar mavjuddir. Inson bu kuchlarni yuzaga chiqazishi kerak. Bunga esa faqat faoliyat, harakatchanlik orqali erishiladi.

Piko barcha falsafiy ta'limotlar va diniy qarashlardagi ijobiy fikrlarni birlashtirishga harakat qildi. Ularni yagona haqiqatning xilma-xil qirralari deb hisobladi. Pikoning ijodi eklektik emas, aksincha, u insoniyatning xilma-xil tajribasini o'rganishga harakat qildi. O'z bilimini insoniyatning beqiyos ong xazinasini hisobidan boyitishga urindi.

Aristotel falsafasi Piko tomonidan o'rta asrlarning faqat so'nggi, yuqori bosqichdagi antik davrning eng muhim va buyuk yutug'i sifatida tan olinadi va shu bilan birga u ortodoksal cherkov ehtiyojlariga moslashtirish maqsadida qayta shakllantiriladi. Shuning uchun ham Uyg'onish davri tafakkuri Aristotelni tanqid qilgan va unga sxolastikaning asosiy ustozini deb qaragan. Aristotelning tanqid qilinishiga konservativ ortodoksal katolitsizm tomondan uning oqlanishini ham sabab bo'lgan, desak xato qilmaymiz.

Haqiqiy Aristotel ta'limotini o'rganishga o'tish uzoq davrni qamrab oladi. Bu jarayon falsafiy tafakkurning umumiy rivoji bilan bog'liq bo'lgan. Falsafa tarixida Uyg'onish davri burilishning boshlanishi bo'ldi. Uyg'onish davri

aristotelchilari tomizm ruhida aristotelizmni tanqid qilish bilan unga asos soldilar. Bu tanqid qobig'i ichida turib, ular aristotelizmning averroistik shaklidagi talqinini ham tanqid qildilar. *Averroizm* Aristotelniig haqiqiy falsafasiga yaqin bo'lsa ham, bir-biri bilan bahslashuvchi ikkita maktab vujudga keladi. Bular Bolonya universiteti atrofida birlashgan aleksandriyaliklar maktabi va Paduya universiteti averroistlari edilar. Ular o'rtasidagi bahs asosan jonning o'lmasligi masalasi haqida bo'lgan. Muhimi shunda ediki, bu bahs o'rta asr tomizm ana'nalarini himoya qilish nuqtai nazaridan olib borilmagan. Shunday qilib, sxolastik aristotelizmning tugatilishi muqarrar bo'la boshladi.

**Petro Pomponatsi** (1462-1525 yillar) aleksandriyaliklarning taniqli vakili bo'lgan. Uning ijodi o'rta asr universiteti aristotelizmining Yangi Uyg'onish davri aristotelizmi bilan almashinishiniig yorqin ifodasi bo'lib, uning ta'limoti o'rta asr an'analarining tashqi shaklini saqlab qolgan, lekin mohiyat jihatdan Yangi falsafiy yondashish edi.

Pomponatsi Paduya shahrida falsafa va meditsinani o'rgangan. Paduya (1495-1509 yillar), Ferrara va Bolonya (1512 yildan) universitetlarida dars bergan. Pomponatsi "Jonning o'lmasligi haqida" (1516) asarida "ikki haqiqat" nazariyasidan kelib chiqib, jonning o'lmasligini ratsional dalillar bilan isbotlash mumkinligini inkor etgan. Pomponatsi Aristotel falsafasiga asoslanib, Ibn Rushd va Foma Akvinskiyning jon haqidagi ta'limotlarini tanqid qilgan. Ortodoksal tomizm vakillari Pomponatsining bu kitobiga qarshi chiqqanlar.

Ikki haqiqat to'g'risidagi ta'limot asosida Pomponatsi falsafaning ilohiyotga bo'ysunmasligi haqidagi ilg'or g'oyalarni ilgari suradi. Uningcha, falsafa ilmiy asoslardan kelib chiqishi kerak. U haqiqiy ratsional bilishning mahsulidir. Dinni faqat xalqni tarbiya qilish uchun saqlash maqsadga muvofiqdir. Pomponatsi «Jonning o'lmasligi haqida», «Tabiat hodisalarining sabablari haqida», «Taqdir, irola erkinligi va ilohiy bashorat haqida» kabi asarlarning muallifi sanaladi.

Uning «Jonning o'lmasligi haqida» risolasi ko'p mulohazalarining mahsuli sifatida yaratilgan. Jonning o'lmasligi haqidagi masalani Pomponatsi tomonidan hal qilinishi, Uyg'onish davri mutafakkirlarining ilohiy inoyat va mo'jizalarni

inkor qiladigan tabiiy axloqning zarurligi haqidagi g'oyalariga mos keladi. Bunda u Aristotel g'oyalarning sezgi a'zolariga bog'liqligi, jonning tanadan ajralmasligi, jon ham moddiy va o'limga mahkum, degan ta'limotiga asoslanadi. Jonning o'lmasligini ratsional, falsafiy asoslash mumkin emas, unga faqat ishonish mumkin. Odam shuning uchun o'lmaydi, u umumiy tushunchalar bilan fikrlashga qodir, xususiy, yakka, ayrim narsalarni mavhumlashtirish qobiliyatiga egadir. Odamning g'ayrimoddiy narsalar haqida, o'lmas ruhiy mohiyatlar haqidagi tasavvurlar yaratishi inson va hayvon sezgilari o'rtasidagi farq mavjudligining isbotidir. Insonning ustunligi, o'rta asr axloqi, falsafasi va ilohiyoti ta'kidlaganidek, mangulikka, o'lmaslikka erishishda emas, balki baxt, rohat-farog'atga ratsional bilim asosida erishish imkoniyatiga ega ekanligidir. Bu narsa umuman inson zoti mavjud bo'lishining maqsadi va ma'nosidir. Shuning uchun ham Pomponatsining "Jonning o'lmasligi haqida"gi risolasi mutaassib ruhoniylarning g'azabini keltirishi va uni omma oldida yoqilishi tabiiy bir holdir.

"Tabiiy hodisalarning sababi yoki sehrgarlik haqida" (1520; 1556 yili nashr qilingan) asarida Pomponatsi diniy mo'jiza va sehrgarlikni rad etib, sirli hodisalarni tushunish uchun ularning tabiiy sabablarini ochib tashlash kerak, deb hisoblagan. Mutafakkirning "Tabiat hodisalarning sabablari haqida"gi risolasi Yangi tabiatshunoslikka yo'l ochib berdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Italiyada, G'arbiy va Shimoliy Yevropada, Uyg'onish davrida tabiat hodisalari va jarayonlarini ratsional talqin qilish eng dolzarb masalalardan edi. Pomponatsi fikricha, farishtalar va devlar tana a'zolariga ega emaslar. Shunday ekan, ular odamlarning kundalik ishlariga aralashmasliklari kerak. Bu g'oyalar garchi juda sodda bo'lsa ham, izlanishning to'g'ri yo'llarini topishga yordam beradi. Pomponatsi shunga ishonganki, kosmik harakatlar umumiy tabiiy qonuniyatlarga bo'ysunadi. Tabiatda hamma narsa o'z sababiga ega. Dunyo harakatning umumiy qonuniga bo'ysunadi. Hamma narsa paydo bo'ladi, o'zgaradi va yo'qlikka yuz tutadi. Bu jarayon doim qaytalanib turadi. Sababiy bog'lanish haqidagi tasavvur Pomponatsida harakatning doimiy takrorlanib turishi, doiraviy harakat haqidagi tasavvurlari bilan uzviy bog'langan.

Pomponatsi “Taqdir, iroda erkinligi, ilohiy bashorat haqida” risolasida tasodifiy hodisalar umumiy zaruriyatning namoyon bo‘lishidir, degan g‘oyani ilgari suradi. Insonning xulq-atvori ham sabab va oqibat munosabatlaridan tashqarida emas. Inson erkin bo‘lishi mumkin. Uning erkinligi tashqi ob‘ektiv muhit va shaxsiy tabiati bilan bog‘langan. Pomponatsi, shuningdek, ilohiy taqdir va individning shaxsiy mas‘uliyatini ham tan oladi. Uningcha, xudo hamma mavjud narsalarning, demak, har bir odamning ham mutlaq sababchisi bo‘lib turib, har bir ayrim odamning xulq-atvori haqida qanday qilib hukm chiqarishi mumkin? Shunday qilib, xristian dini dunyodagi gunoh va sabab uchun o‘zi mas‘ul. Pomponatsining fikricha, xudo erkin irodaga ega emas. Uning faoliyati sababiy bog‘langan, tabiiy zaruriyatdir. Faqat mana shu holdagina u dunyodagi yomonliklar uchun javobgarlikda ayblanmasligi kerak. Yomonlik ham zaruriyatdir. Yaxshilikning mavjudligi, yomonlikning zaruriy ekanligini taqozo qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ijtimoiy tengsizlik bir butun, yaxlit dunyo mutanosibligining aks etishidir. Pomponatsi xudoni zaruriyat bilan tenglashtiradi va bu narsa uning panteizm nuqtai nazariga o‘tganidan dalolat beradi. Shunday qilib, taqdir va iroda erkinligi masalalarida Pomponatsi stoitsizm ta’limotiga yaqin konsepsiyani ilgari surgan. Xudoning mavjudligini inkor etmasa-da, u tabiat va jamiyat ishlariga aralashmaydi, deb hisoblagan. Pomponatsi XVI-XVII asrlar G‘arbiy Yevropa hurfikrligining rivojlanishiga muayyan ta’sir ko‘rsatdi.

XV-XVI asrlar Uyg‘onish davrining gumanistik g‘oyalari faqat Italiya bilan chegaralanib qolmasdan, Angliya, Niderlandiya, Germaniya, Shveysariya, Ispaniya, Polsha, Vengriya kabi mamlakatlarga ham yoyiladi. Italiya va Shimoliy Yevropadagi Uyg‘onish davri tafakkuri qator umumiy ko‘rinishi va jihatlarga ega bo‘lishi bilan birga o‘zining betakror xususiyatlariga ham egadir.

Italiya Uyg‘onish davri tafakkuri nisbatan yaxlit bir butunlikni tashkil etadi. Uning asosiy mavzusi tabiat falsafasi bo‘lgan. Boshlang‘ich pozitsiyasi (nuqtai nazari) gumanistlar tomonidan qayta ishlangan neoplatonizm edi. Shimoliy Evropa mamlakatlari gumanizmida esa mantiq, metodologiya, davlat va huquq falsafasi asosiy o‘rinni egallagan (garchi Italiyada ham metodologiyani ishlab chiqqan

Valla, davlat falsafasi nazariyotchisi Makiavelli mavjud bo'lgan bo'lsa ham). Italiya gumanizmi asosan adabiy, metafizik xarakterda bo'lgan. "Shimoliy" gumanizm esa nisbatan jiddiyroq nuqtai nazarda turgan. "Shimoliy" gumanizmning vujudga kelishi va rivojlanishiga faqat Italiya gumanizmigina ta'sir ko'rsatmasdan, o'rta asr ijtimoiy-iqtisodiy tanazzuli bilan bog'liq tarixiy sharoitlar va ayrim Yevropa mamlakatlarida Yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning kurtak shaklida vujudga kela boshlashi ham katta ta'sir ko'rsatganligi ma'lum. O'sha davr tafakkuridagi muhim voqea - gumanistlarning hukmron mafkura va katolitsizm falsafasi bilan keskin to'qnashuvidir. Hatto ayrim hollarda gumanistlar diniy ilohiyotchilik harakati va uning mafkurachilariga ham keskin qarshi chiqqanlar. Bu gumanistlarning asosiy shiorlari inson, vijdon, din va tanqid erkinligi kabilar edi.

**Rottyerdamlik Erazm** (1469-1536 yillar) xuddi Petrarkaga o'xshab XVI asrning boshi va o'rtalarida Yevropaning eng mashhur nom taratgan yozuvchisi va gumanist faylasufiga aylandi. Ruhoniyning nikohsiz o'g'li bo'lgan Rotterdamlik Erazm boshlang'ich ta'limni xuddi Nikolay Kuzanskiyga o'xshab, "umumiy hayot birodarlar"iga tegishli bo'lgan maktablarida olgan. Keyinchalik u Sarbonna universitetini tugatib, teologiya doktori unvonini oladi. Bu yosh ruhoniy Parijda yashagan davrda gumanistlar ta'limoti bilan tanishib ular davrasiga qo'shiladi. Erazm reformatsiya davridagi to's-to'polonlardan o'zini chetga olib Bazel shahrida o'z shogirdlari davrasida panohtopadi.

Erazm nihoyatda boy badiiy falsafiy meros qoldirgan. Bular qatorida "Nodonlikning maqtovi", "Osmonga chiqishga ruhsat berilmagan Yuliy", "Oddiy suhbatlar", "Maqolalar" to'plami, "Xristian askariga nasihatlar", "Xristian hukmdorining tarbiyasi", "Dunyoning shikoyaty", "Til", "Iroda erkinligi haqidagi traktat". Erazm o'z asarlarida sxolastika falsafasining mashhur realizm, nominalizm, tomizm, okkamizm va shunga o'xshash ko'pgina oqimlarini hayotdan ajralib qolganliklari uchun tushunchalar va qonunlar tizimi chegarasidan chetga chiqmaganligi uchun qattiq tanqid qiladi. "Sokrat

falsafani osmondan yerga tushirdi”, - deb yozadi Erazm o‘zining “Oddiy suhbatlar” asarida [3, 23].

Erazm falsafaning markazida hayotiy masalalar yotishi kerak, deb hisoblagan. Uning nazarida falsafa predmeti dunyoqarashdir va bu dunyoqarash oldingi sxolastik dunyoqarashdan tubdan farq qiladi. Erazm tomonidan ishlab chiqilgan Yangi falsafa o‘zining hayotiyliigi bilan tushuncha va qonun-qoidalardan yiroqligi bilan ajralib turadi. Zamondoshlari o‘rtasida Erazmning “Nodonlikning maqtovi” deb atalgan asari o‘zining soddaligi va hajviy xarakterga egaligi bilan obro‘ qozondi.

Iso payg‘ambar va uning shogirdlari tomonidan aytilgan rivoyat va o‘g‘itlarning soddaligi haqida gapirar ekan, Erazm ularni sxolastika falsafasidagi murakkab mantiqiy mushohadalardan katta farq qilishini ko‘rsatadi. “Iso payg‘ambarning soddadil hikmatlarida nihoyat chuqur hikmat yashirin”, - deb hisoblaydi Erazm [3, 23]. Erazm fikricha, falsafaning asosiy usuli Platon dialoglariga o‘xshash suhbat va hikmatli rivoyatlar shaklida bayon qilinishi kerak. Ular xalq donishmandligidan olinadi.

Erazmning axloqiy qarashlari, o‘z davridagi katolik xristianlik ta’limotidan tubdan farq qilgan. Katolik cherkovining urf-odatlarini uning fikricha, haddan tashqari marosimlarning tashqi shakliga e’tibor bergan. Undan tashqari xristian inkvizitsiyasi ichki dushmanlarni qidirish bilan ovora bo‘lgan va ularni gulhanda yoqib vahshiyona qatl qilgan. Bularning barchasi Erazm fikricha, xristian dinining asl mohiyatiga to‘g‘ri kelmaydi. Xristian katolik cherkovining bunday faoliyatini Erazm to‘g‘ri yo‘ldan adashish deb hisoblaydi. Uning fikricha, ilk bor xristianlikda diniy bag‘rikenglik, insonlarga bo‘lgan mehr-muhabbat, adolat va hikmat yotadi.

Bu hikmat tashqi ko‘rinishidan soddaga bo‘lganligi bilan nihoyatda chuqur yashirin ma’noga ega. Uni tushunish uchun so‘zlarning tashqi shakliga, murakkab fikrlarga e’tibor bermaslik lozim. Hikmat va donolik Erazm fikricha, mantiq kiyimlariga o‘ranmaydi va yuzaki aql niqobini kiymaydi.

Erazm tabiatni ulugʻlaydi va xristian katolik diniga xos boʻlgan tabiatni xudodan ajratishga qarshi chiqadi. “Iso Masih aytgan hikmatlarida tabiat va xudo yagona borliqni tashkil etadi”, - deb yozadi [3, 24]. Erazmning bu qarashlari panteistik xarakterga ega. U materiyani ruhdan ajratmaydi, yerdagi hayotni ham ulugʻlaydi. Riyozat chekish oʻrniga inson yerdagi hayotdan lazzatlanish va zavqlanishi kerak, deb hisoblaydi Erazm. Bu fikrni Erazm oʻzining “Epikur” asarida aytib oʻtadi va Epikur taʼlimotidagi lazzatlanish gʻoyasini ilk bor xristianlikdagi tabiatni ruhlantirish gʻoyasi bilan birlashtiradi.

Erazm dunyoqarashining asosida ilk xristianlik gʻoyalarini qayta tiklash, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida dastlabki asoslarga qaytish yotadi. Erazm hamma narsalarni muqaddas yozuvlarni oʻrganish va talqin qilishga olib borib taqab, aqidaparastlik bahslaridan xalos boʻlishga harakat qiladi. Gumanistik falsafa uslublarini qoʻllash Erazmga 1517 yilda “Yangi Ahd”ni keng sharhlar bilan lotin tilida nashr qilishga imkon berdi. Bu Reformatsiya yoʻlida bir qadam boʻldi, “Yangi Ahd”ni ilmiy tahlil qilish asoslarini yaratdi. U katolik cherkovi kamchiliklarini tanqid qilishni umri oxirigacha davom ettirdi.

Faylasufning asosiy asari “Ovsar xonim maqtovi” 1509 yilda yozilgan. 1511 yilda ilk bor Parijda chop etilgan bu asar muallifning inson mavjudligi barcha masalalari boʻyicha quyidagi ikki tezisga asoslangan qarashlari yigʻindisidir: borliqning barcha hodisalari ikkilanish va ixtiyoriy erkinlik, aqliy koʻrinishning salbiyligidir. Erazmning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qarashlari haddan tashqari axloqiy boʻyoqlar bilan berilgan. Umuman, Erazm siyosiy qarashlarida kuchli, lekin maʼrifiy, insonparvar monarxiya tarafdoridir. Biroq, u oʻzini-oʻzi boshqaruvchi shahar jamoasiga ham qiziqish bilan qaragan. Erazmning pedagogik qarashlarida oʻrta asr taʼlim va tarbiya tizimining kamchilik tomonlarini qoralagan. Uning falsafiy qarashlarini baholashda “Xristian jangchisi” nomli risolasi ham muhim ahamiyatga ega. Bu asar uning dunyoqarashi toʻla shakllanganligini koʻrsatadi. Erazm qarashlari oʻzidan keyingi ilohiyotchilar uchun muayyan ahamiyatga molik manba boʻldi.

Eng yirik fransuz gumanistlaridan biri **Per dela Rame** (1515-1572 yillar) bo'lgan. U ajoyib fan islohchisi, matematik va mantiqshunos olim, sxolastik aristotelizmning tanqidchisi edi. U ilmiy faoliyatining dastlabki bosqichidayoq Aristotel nima degan bo'lsa, hammasi sun'iy va g'ayriilmiydir, deb e'lon qiladi. Eng avvalo, u Aristotel ta'limotining metodologiya va mantiqqa oid asarlarini tanqid qiladi. Aristotel mantiq'ining asoslanmaganligini isbot qilishga urinadi. Yangi ilmiy metodologiyani yaratish zarurligini ta'kidlaydi. Xususan, bunda matematikaning ahamiyatini ko'rsatadi. Uning fikricha, tafakkurni qadimiy an'analardan va Aristotel nufuzi (avtoriteti)dan ozod qilish kerak. U Yangi metod "tabiiy donolik" tamoyillarita asoslanishi kerak, degan fikrni ilgari surgan. Rame mantiqqa Yangicha talqin bermoqchi bo'lgan. Lekin uning bu urinishi biron Yangi g'oyaga asoslanmagan. U mantiqni Sitseron ritorikasi bilan birlashtirgan. Lekin yuqoridagi mulohazalardan qat'iy nazar, uning g'oyalari mantiq rivojiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan.

Umuman, butun Uyg'onish davri falsafasiga xos narsa bu nufuz, obro' (avtoritet)larni inkor qilish bo'lgan. Lekin Yangi falsafiy an'analar vujudga kelayotgan paytda shunday hollar ham yuz berganki, Uyg'onish davri ideallarining tarafdorlari ko'pincha o'zlarining Yangi ideallariga (orzudagi) hamdu sanolar aytganlar. Yangidan tug'ilib kelayotgan madaniyatning keskin zavqu shavqi ayrim yuzakilikni ham keltirib chiqargan edi. Shuning uchun Uyg'onish davrining ayrim mutafakkirlari buni anglab, tanqiliy fikrlarni bildirganlar. Bu tanqid ko'pincha skepsis (tushkunlik, ishonchsizlik) deb atalgan. Mana shunday Uyg'onish davri skeptitsizmining vakillari Mishel de Monten va Per Sharron edi. Ular eski va Yangi "olimlik"ni inkor qilib, insonni tabiiy tarzda tushuntirish usuliga murojaat qildilar. Shuning uchun ularning gumanizmi ba'zan "naturalistik" deb ham atalgan.

Fransuz gumanisti **Mishel de Monten** (1533-1592 yillar) ko'p odamlarni umidsizlikka, xarob bo'lishga olib kelgan gugenot urushlarining guvohi bo'lgan. Keyinchalik u dvoryanlik maqomini olgan. Monten ijtimoiy fanlarni, qadimiy madaniyatni mukammal bilgan va o'z risolalarida ulardan foydalangan.

Shahar magistrati sifatida Monten diniy fanatizm qurbonlari qanday adolatsizlarga duchor bo'lganlarining shaxsan guvohi bo'lgan. Sud jarayonlari "dalillar"ning yolg'onligi, soxtaligini o'z ko'zi bilan ko'rgan. Bularning hammasi uning inson va uning fazilati haqidagi ijodida o'z aksini topgan. Inson hayotiga, jamiyatga, o'z davri madaniyatiga bo'lgan tanqidiy qarashlarini, o'zining his-tuyg'u va kayfiyatlarini u kundaliklar, esdaliklar, lavhalarda bayon qilgan.

Monten sxolastikaning izchil dushmani sifatida Aristotel va Platon nufuzlariga suyangan universitetlarning soxta donoligini rad qiladi. U muhokama va xulosalarning mustaqil bo'lishiga asosiy e'tiborni qaratgan. Buning timsoli, deb u antik falsafa hurfikrligini hisoblagan. Monten tafakkurining muhim tomoni skeptitsizm bo'lgan. Lekin bu tushkunlik ruhidagi skeptitsizm bo'lmasdan, balki hayotga muhabbat, hayotga tanqidiy yondashish ruhidagi skeptitsizm edi. U skeptitsizm yordamida mutaassiblik ruhidagi intilishlardan qutulishni nazarda tutgan. Dekart singari uning uchun ham skeptitsizm o'z aqliga suyangan holda haqiqatga erishish vositasi hisoblangan. Monten ta'limoticha, o'zining cheklangan, mukammal bo'lmagan bilimini tan olish, bilishning keyingi bosqichi uchun asos bo'ladi. Bunday holatni u zaruriy bir jarayon, deb hisoblaydi. Shu bilan birga ishonchni, o'z-o'zidan qoniqishni, aqidaparastlikni inkor qiladi. Ikkinchi tomondan, pessimistik ishonchsizlikni, agnostitsizmi ham rad etadi.

Montenning ijtimoiy-axloqiy qarashlari naturalistik ruhda. U "olijanoblik"ning sxolastik talqiniga qarama-qarshi holda sevgiga to'la mo'tadil, lekin shu bilan birga yovuzlikka, qo'rquvga, xo'rlashga nisbatan murosasiz bo'lgan olijanob hayotni oldingi o'ringa qo'yadi. Bunday olijanoblik tabiatga mos keladi, inson hayotining tabiiy sharoitlarini bilishdan kelib chiqadi. Montenning axloqiy ta'limoti butunlay yerdagi hayotga qaratilgan. Uningcha, tarkidunyochilik ma'nosizdir. Insonni tabiiy tartibda vujudga kelgan jarayondan, o'zgarishdan, o'limdan ajratib qo'yish mumkin emas.

Monten inson shaxsining mustaqilligi va erkinligi g'oyasini ilgari suradi. Uning ta'limoti invidualizm, riyokorlik ruhidagi qarashlarga qarshi qaratilgan. Uningcha, ko'pincha "boshqalar uchun yashash" shiori ostida ayrim odamlarning

xudbinlik, manfaatparastligi yotib, “boshqa odam” esa vositaga, qurolga aylantirib qo‘yiladi. U insonning mustaqil, erkin tafakkurini bo‘g‘uvchi loqaydlik, riyokorlik, taqlid qilishni qoralaydi. Xudoga nisbatan u skeptik munosabatda bo‘ladi. Shuning uchun uning inson faoliyatiga hech qanday aloqasi yo‘q - Xudo qandaydir shaxssiz mohiyatdir. Montening din erkinligi haqidagi fikri taraqqiyparvarlik ahamiyatiga ega. Uningcha, bironta din boshqa dinlar ustidan ustunlikka ega emas.

Montening gumanizmi ham naturalistik ruhda: inson tabiatning bir qismi, shuning uchun o‘z hayotida ona-tabiat nimaga o‘rgatsa, shunga amal qilishi kerak bo‘ladi. Falsafa murabbiylik vazifasini bajaradi. U odamlarni to‘g‘ri, tabiiy va olijanob hayotga yo‘naltirishi kerak. U hech mahal o‘lik aqidalar, tamoyillar va diniy targ‘ibotlar yig‘indisi bo‘lmasligi lozim. Montening g‘oyalari Yevropada kelgusi falsafaning rivojiga, xususan, Bekon, Dekart, Gassendi ta‘limotiga, fransuz ma‘rifatchilaridan Volter, Lametri ta‘limotining shakllanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi.

Montening izdoshi **Per Sharrondir** (1541-1603 yillar). U o‘zining “Donolik haqida” nomli asarida Monten qarashlarini bir tizimga soldi. Sharron ularni sxolastik sipolik bilan ifodaladi. Bu narsa Monten ta‘limotining o‘ziga xosligi va hayotiyliги xususiyatlarini yo‘qotdi. Sharron, shuningdek, skeptik falsafani xristianlik bilan kelishtirishga harakat qildi.

### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Panteizm qanday falsafiy dunyoqarash hisoblanadi?
2. Neoplatonizmning falsafiy mohiyati nimada.
3. Aristotelchilik nimani ilgari suradi?

### **Adabiyotlar:**

1. Йўлдошев С., Усмонов М., Каримов Р. Қадимги ва ўрта аср Ғарбий Европа фалсафаси. Ўқув кўлланма. –Тошкент: Шарқ, 2002.
2. Пўлатова Д., Рузматова Г. Ғарб фалсафаси. –Тошкент: Premier-print, 2011.

3. Қобулниёзова Г. Уйғониш ва Янги давр Ғарб фалсафаси анъаналари.  
Ўқув қўлланма. Қўлёзма ҳуқуқида. –Тошкент, 2013.

4. Фалсафа. Қомусий луғат /Қ.Назаров таҳрири остида. –Тошкент:  
ЎФМЖ, 2005.